Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81
FILOLOGIYA

KAPTARBOZLAR, XO'ROZBOZLAR VA QIMORBOZLAR NUTQINING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Shukrullo Xaliljonovich Sayidov*
Farg'ona davlat texnika universiteti, assistent o'qituvchi
✉ shukrullosayidov1991@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada qimorbozlar, kaptarbozlar va xo'rozbozlar nutqining sotsiolingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu guruhlar tor ijtimoiy guruhlar sifatida qaralib, ularning nutqida shakllangan maxsus terminologik qatlam, jargonlar, sleng, argo birliklar va kommunikativ me'yorlar o'rganiladi. Tadqiqotda ijtimoiy guruhlar tilining shakllanish omillari, jargonlarning kommunikativ va identifikatsion funksiyalari, shuningdek, ushbu guruhlar nutqining milliy til tizimidagi o'rni yoritiladi. Tahlillar natijasida qimorbozlar, kaptarbozlar va xo'rozbozlar nutqi umumxalq tilining sotsial differensiallashuvi natijasida shakllangan alohida kommunikativ tizim ekanligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar

sotsiolingvistika, ijtimoiy guruh tili, jargon, argo, sleng, qimorbozlar nutqi, kaptarbozlar nutqi, xo'rozbozlar nutqi, terminologiya, nutqiy hamjamiyat.

DOI: 10.5281/zenodo.21743548

Kirish

Zamonaviy sotsiolingvistikaning asosiy vazifalaridan biri til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganishdan iborat. Jamiyat tarkibida mavjud bo'lgan turli ijtimoiy guruhlar o'ziga xos nutqiy xususiyatlarga ega bo'lib, ular umumxalq tilining sotsial differensiallashuvi natijasida shakllanadi. Tilning ijtimoiy tabiatini o'rganishda tor ijtimoiy guruhlarning nutqi alohida ahamiyat kasb etadi. Qimorbozlar, kaptarbozlar va xo'rozbozlar ana shunday nutqiy hamjamiyatlardan hisoblanadi. Mazkur guruhlar umumiy faoliyat turi, o'zaro kommunikativ muhit, maxsus terminologiya va guruh ichki me'yorlariga ega bo'lib, ularning nutqida o'ziga xos leksik qatlam shakllangan [2, 118].

Sotsiolingvistika fanida nutqiy hamjamiyat deganda umumiy kommunikativ me'yorlar, til birliklari va muloqot qoidalariga ega bo'lgan kishilar guruhi tushuniladi [3, 124]. Bunday hamjamiyatlar ko'pincha kasbiy, hududiy yoki submadaniy asosda shakllanadi.

Qimorbozlar, kaptarbozlar va xo'rozbozlar bir xil faoliyat turi bilan shug'ullanmasalar-da, ularni birlashtiruvchi muhim belgi – maxsus kommunikativ kodga egaligidir. Guruh ichida qo'llaniladigan terminlar, jargonlar va baholovchi birliklar tashqi kuzatuvchi uchun to'liq tushunarli bo'lmasligi mumkin. Mazkur guruhlar "ludik-agonistik submadaniyat" vakillari sifatida ham tavsiflanadi. Chunki ularning faoliyati o'yin (lotincha ludus) va raqobat (yunoncha agon) elementlariga asoslanadi [4, 92].

Sotsiolingvistik tadqiqotlarda tilning tayanch, etnoijtimoiy va ijtimoiy vazifalari ajratiladi. Tayanch vazifa muloqotni ta'minlasa, etnoijtimoiy vazifa xalqning tarixiy va madaniy tajribasini aks ettiradi. Ijtimoiy vazifa esa muayyan guruhlarning hayot tarzini, qadriyatlarini va munosabatlarini ifodalaydi [5, 44].

Qimorbozlar, kaptarbozlar va xo'rozbozlar nutqida aynan tilning ijtimoiy vazifasi yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki mazkur guruhlar vakillari o'zaro muloqotda maxsus leksik birliklardan foydalanadilar. Bu birliklar nafaqat axborot almashish, balki guruhga mansublikni ko'rsatish vazifasini ham bajaradi. Masalan,

qimorbozlar nutqida *stavka*, *bank*, *cho‘tal*, *kombinatsiya*, *yutish*, *yutqazish* kabi birliklar faol qo‘llansa, kaptarbozlar nutqida qush zotlari va uchirish usullarini ifodalovchi maxsus terminlar uchraydi. Xo‘rozbozlar nutqida esa jang usullari, xo‘rozlarning jismoniy belgilari va musobaqa natijalarini ifodalovchi terminologik qatlam shakllangan.

Tilshunoslikda jargon va argo tushunchalari ko‘pincha bir-biriga yaqin ma’nolarda qo‘llanadi. Biroq ular orasida muayyan farqlar mavjud. Jargon muayyan ijtimoiy guruh tomonidan qo‘llanadigan va shu guruh manfaatlariga xizmat qiladigan leksik qatlam hisoblanadi [6, 87].

I.A. Boduen de Kurtene argoni “blatnaya muzyka” deb atagan bo‘lsa, keyinchalik ushbu atama jinoyatchilar nutqiga xos maxsus tilni anglatishda qo‘llanila boshlagan [7, 56].

Nazar Rajabovning ta’kidlashicha, jargonlar ayrim ijtimoiy qatlamlarga xizmat qiluvchi va umumxalq tilidan ma’lum darajada farqlanuvchi birliklardir [8, 61]. Jargonlarning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi: *qo‘llanish doirasining chegaralanganligi; guruh ichidagi kommunikativ ehtiyojlarga xizmat qilishi; ekspressivlikning yuqoriligi; ma’lum darajada yashirinlikni ta’minlashi;* va *tez o‘zgaruvchanligi.*

Qimorbozlar nutqi tavakkalchilik va moddiy manfaat bilan bog‘liq faoliyat mahsuli sifatida shakllangan. Mazkur nutq qatlamida umumxalq tilidagi ko‘plab birliklar maxsus ma’no kasb etadi. Masalan: cho‘tal – qimorda yutilgan pul; bank – o‘yinga qo‘yilgan umumiy mablag‘; stavka – pul tikish miqdori; kombinatsiya – yutuqqa olib keluvchi kartalar yoki vaziyat; otmoq – aldash yoki hiyla ishlatish. Mazkur birliklarning aksariyati semantik ko‘chish asosida shakllangan bo‘lib, ularning ma’nosi faqat muayyan kommunikativ vaziyatda to‘liq anglashiladi [5, 144].

Kaptarbozlar nutqi boshqa ikki guruh nutqidan farqli ravishda ko‘proq havaskorlik va an’anaviy mashg‘ulot bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, bu nutqda ham guruh ichki terminologiyasi mavjud. Kaptar zotlari, parvoz usullari, uchirish texnikasi va baholash mezonlari bilan bog‘liq birliklar maxsus kommunikativ qatlamni tashkil etadi. Bunday birliklar guruh a’zolari tomonidan tez va aniq axborot almashishga xizmat qiladi. Kaptarbozlik qonunan taqiqlanmagan faoliyat bo‘lsa-da, uning nutqiy tizimi tashqi kuzatuvchi uchun murakkab va maxsus bilimlarni talab qiladigan tizim hisoblanadi.

Xo‘rozbozlar nutqi terminologik jihatdan eng boy qatlamlardan biridir. Ushbu nutqda xo‘rozlarning zotlari, jang usullari, jismoniy belgilari va musobaqa natijalarini ifodalovchi ko‘plab birliklar uchraydi. Bundan tashqari, xo‘roz urishtirish ayrim hollarda qimor bilan bog‘langanligi sababli, qimorbozlar nutqiga xos birliklar ham uchraydi. Shu jihatdan xo‘rozbozlik maydoni kaptarbozlik va qimorbozlik nutqi o‘rtasidagi oraliq pozitsiyani egallaydi [6, 103]. Xo‘rozbozlar nutqidagi terminlar predmet va hodisalarni nominatsiya qilish, guruh identifikatsiyasini ta’minlash, tajriba va bilimlarni uzatish, kommunikatsiyani ixchamlashtirish kabi vazifalarni bajaradi.

Jargonlar faqat axborot uzatish vositasi emas, balki ijtimoiy identifikatsiya vositasi hamdir. Muayyan jargonni qo‘llash orqali shaxs o‘zining qaysi guruhga mansubligini namoyon qiladi [7, 172]. Masalan, “soqqa”, “ko‘kat”, “loy” kabi birliklar pul ma’nosini anglatsa-da, ular ma’lum ijtimoiy qatlam vakillarining nutqiy identifikatori hisoblanadi. Shuningdek, jargonlar guruh ichki birdamligini mustahkamlash, yangi a’zolarni ijtimoiylashtirish va tashqi auditoriyadan ma’lumotni qisman yashirish vazifasini ham bajaradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jargonlarning katta qismi ma’no ko‘chishi asosida yuzaga keladi. Metafora, metonimiya, vazifadoshlik va assotsiativ aloqalar jargon hosil bo‘lishining asosiy mexanizmlaridir [8, 91]. Masalan: soqqa – pul; ko‘kat – dollar; qurug‘i – nasha; latta – yigit; tanka – imtihonda yordam beruvchi shaxs. Ushbu birliklarning shakllanishida ekspressivlik va yashirinlik tamoyillari ustunlik qiladi.

Xulosa

Qimorbozlar, kaptarbozlar va xo‘rozbozlar nutqi umumxalq tilining sotsial differensiallashuvi natijasida shakllangan maxsus kommunikativ tizimdir. Mazkur guruhlar nutqida jargonlar, terminologik birliklar va ekspressiv leksika muhim o‘rin egallaydi. Ular axborot uzatish bilan bir qatorda guruh identifikatsiyasi, birdamlikni mustahkamlash va kommunikativ chegaralarni belgilash vazifalarini ham bajaradi. Tadqiqot natijalari ushbu nutqiy hamjamiyatlarni sotsiolingvistik jihatdan o‘rganish o‘zbek tilidagi ijtimoiy chegaralangan leksikaning tabiatini chuqurroq anglash imkonini berishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. Sotsiolingvistika asoslari. – Toshkent: Fan, 2012.
2. Rahman A. Religious Behavior of Cockfighting Actors in Indonesian Society // Journal of Social and Religious Studies. – 2022.
3. Rajabov N. Hozirgi o‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1966.
5. Беликов В.И., Крысин Л.П. Социолингвистика. – Москва: РГГУ, 2001.
6. Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по языкознанию. – Москва, 1963.
7. Крысин Л.П. Социальная диалектология. – Москва: Наука, 1989.
8. Швейцер А.Д. Современная социолингвистика. – Москва: Наука, 1977.